



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/7



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 7-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 7 - SON
2026

Google Scholar



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



ICHKI ISHLAR ORGANLARINING O'Q OTISH TAYYORGARLIGI KURSIDA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Alijonov Azizjon Tursunaliyevich

IIV Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli boshlig'i,
podpolkovnik, dotsent

Annotasiya. Mazkur ilmiy maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining o'q otish tayyorgarligi mashg'ulotlarini baholash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. O'q otish mashg'ulotlarida samaradorlikni oshirish uchun aniq, xolis va shaffof mezonlarni joriy qilishning ahamiyati alohida qayd etiladi. Ilmiy maqolada Koreya politsiyasi tajribasi asosida o'zbek milliy amaliyoti uchun muvofiqlashtirilgan model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, politsiya, o'q otish tayyorgarligi, baholash tizimi, milliy model, metodik yondashuv, Koreya tajribasi, jangovar tayyorgarlik.

Abstract. This scientific article analyzes the issues of improving the assessment system for firearms training of law enforcement officers. Particular attention is given to the importance of implementing precise, objective, and transparent criteria to enhance the effectiveness of practical shooting exercises. Based on the experience of the Korean police, an adapted model is proposed for application in the national practice of Uzbekistan.

Keywords: law enforcement agencies, police, firearms training, assessment system, national model, methodological approach, Korean experience, combat training cycle.

KIRISH. Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda [1].

Bunday sharoitda davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini himoya qilish masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning kasbiy tayyorgarligini zamon talablari asosida takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [2].

Ichki ishlar organlarida xizmat qiluvchi xodimlar yuqori darajadagi kasbiy mahorat, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, ruhiy barqarorlik hamda o'qotar qurolni mohirona qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishlari hozirgi zamon talabi hisoblanadi [3]. Shu nuqtai nazardan, xizmat faoliyatida uchraydigan turli nostandart vaziyatlarda professional harakatlanish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlarining maxsus va jangovar tayyorgarligini muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur", – deya fikr bildirilgan [4].

O'q otish tayyorgarligi ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u xodimlarda o'qotar qurolni to'g'ri qo'llash, aniq va xavfsiz otish, nostandart vaziyatlarida tez va samarali harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda o'quv mashg'ulotlarini





samarali tashkil etish va amaliy mashqlarning sifatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlarida o'q otish tayyorgarligida qo'llanilayotgan baholash tizimini tahlil qilish, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Qolaversa, o'q otish tayyorgarligida baholashning samarali va munosib tizimini joriy etish xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish, o'quv jarayoni natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar. Ilmiy maqolaning metodologik asosini qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kuzatish va ilmiy manbalarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Qiyosiy tahlil jarayonida Koreya politsiyasi va O'zbekiston ichki ishlar organlari o'q otish mashqida o'q taqsimotidagi farqlar o'rganildi. Ushbu farqlar baholash tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinib, milliy amaliyotga mos baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati ilmiy asoslandi. Koreya politsiyasi amaliyotida qo'llaniladigan sport nishoni va belning past qismi shaklidagi nishon bo'yicha baholash tartibi tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Unda o'q otish mashg'uloti davomida sport nishoniga va beldan past qismi shaklidagi nishonga otiladigan o'qlar soni va baholash mezonlari tizimli o'rganildi. O'q otish tayyorgarligini tashkil etish va baholash mezonlari bo'yicha xorijiy ilmiy manbalar hamda normativ-metodik materiallar tahlil qilindi. Ushbu jarayonda politsiya xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligiga doir xorijiy tadqiqotlar, jumladan, Koreya politsiyasida amalga oshirilayotgan o'q otish mashg'ulotlari, ularning metodik bosqichlarini kuzatish va ilmiy manbalarni tahlil qilish metodi orqali o'rganildi.

MUHOKAMA. So'nggi yillarda ta'lim tizimida natijadorlikni oshirish maqsadida baholash mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, amaliy ko'nikmalarni baholashda aniq, xolis va shaffof mezonlarni ishlab chiqish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu borada rus olimi I.Gerasimov va P.Solovyevlar "ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat va jismoniy tayyorgarlik tizimini modernizasiya qilishning eng maqbul yo'li — xorijiy tajribalarni kompleks tahlil qilish, boshqa davlatlar politsiya tuzilmalarining shaxsiy tarkibni tayyorlash borasidagi tajribasini o'rganish" xususidagi [5] fikrlarini to'liq qo'llab quvvatlaymiz va Koreya politsiya xodimlari tomonidan o'q otish mashg'ulotlarini baholash bo'yicha tajribalarni o'rganish samaradorlikning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaymiz.

Shuningdek, I. Gerasimovga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashda doimo ustunlikni saqlab qolish uchun politsiyaning moddiy-texnik va metodik ta'minoti kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish jarayoni bilan uyg'un holda olib borilishi lozim [6] Albatta, moddiy-texnik ta'minot va metodikaning optimalligi malaka oshirish tizimida natijadorlikning ortishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

I. Parkning fikricha, Koreya politsiyasi mansabdor shaxslari jamoat tartibini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamoat tartibni saqlash kabi standart vazifalarni bajaradi. Davlatimiz hududida har yili juda ko'p sondagi jinoyatlar sodir etiladi. Jumladan, 2025-yil davomida Respublikamizda 155002 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib shulardan 88981 tasi og'ir turdagi va 5929 tasi o'ta og'ir turdagi jinoyatlarga kiradi. Eng og'ir besh turdagi jinoyatlar — qotillik, talonchilik, zo'rqlash va majburlash, o'g'irlik hamda zo'ravonlik





kabi holatlarda qayd etiladi. Bunday sharoitda Ichki ishlar organlari xodimlari kecha-kunduz xizmat qurollari va maxsus jihozlar bilan xizmat olib borishlari uchun yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilish imkoniyatini ta'minlovchi jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim [7]. Van Xun Sikning ta'kidlashicha, epchillik va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar politsiya xodimlari faoliyatida real yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega [8]. Koreyaning ushbu yo'nalishdagi tajribasi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 10-oktyabr kunidagi 600-son buyrug'i bilan ichki ishlar organlarining o'q otish tayyorgarligi mashqlarini bajarishda tatbiq etilgan bo'lib, hozirda o'zining samarasini bermoqda [9].

Janubiy Koreya politsiyasi o'q otish tayyorgarligi borasida ehtiyotkorlik, aniqlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan o'ziga xos tizimni shakllantirgan. Ushbu tizimning markazida metodik yondashuv va real vaziyatlarga moslashtirilgan mashg'ulotlar turadi.


Koreya politsiyasining o'q otish tayyorgarligi metodik jihatdan bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Dastlab nazariy tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilib, xodimlarga o'qotar qurolning taktik-texnik tuzilishi, xavfsizlik choralari va huquqiy asoslar batafsil tushuntiriladi. Bu bosqichda o'qotar qurolni qo'llash so'nggi chora ekanligi, uni faqat mutlaq zarurat tug'ilgandagina qo'llash mumkinligi qat'iy singdiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar esa osondan murakkabga qarab (gradatsiya) tamoyili asosida olib boriladi. Avval statik holatda to'g'ri nishonga olish, nafasni boshqarish va barqaror turish texnikalari o'rgatiladi. Keyingi bosqichlarda harakatda o'q otish, stress ostida qaror qabul qilish va cheklangan vaqt ichida aniq o'q uzish mashqlari qo'shiladi. Metodikaning muhim jihati shundaki, mashg'ulotlar real hayotiy ssenariylarga maksimal darajada yaqinlashtiriladi.

Shuningdek, Koreya politsiyasi tayyorgarlik jarayonida psixologik omillarga ham alohida e'tibor beradi. Xodimlar bosim, qo'rquv va keskin vaziyatlarda o'zini boshqarishni o'rganadi. O'q otish faqat texnik mahorat emas, balki ruhiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq ekanligi metodikaning asosiy g'oyalaridan biridir. Mashg'ulotlar muntazam tahlil qilinib, har bir xodimning kamchiliklari individual tarzda tuzatiladi.

Koreya politsiyasi o'q otish mashg'ulotlarini chuqurroq tahlil qilsak, o'q otish mashg'uloti sport nishoni hamda belning past qism shaklidagi nishonga otish orqali amalga oshiriladi.





Chap tomondagi nishon sport nishoni bo'lib, bu turdagi nishon 10 ballik tizimda baholanadi. Mazkur nishonga jami 10 ta o'q otilib, jami maksimal ball **100 ballni** tashkil etadi.

O'ng tomondagi nishon belning past qism shaklidagi nishon bo'lib, 5 ballik tuzilishga ega. Bu turdagi nishonga turgan holda 10 ta, o'tirgan holda 10 ta o'q otiladi. Shunda jami 20 ta o'q otiladi. Har bir tekkan o'qning bali 2x ga ko'paytiriladi. Masalan, turgan holda otilganida 7 ta o'q 5 ga tegdi, qolgani tegmadi. Shunda, $7 \times 5 = 35$ bo'ladi va natija 2 ga ko'paytiriladi. Natijada, 70 ball hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu turdagi nishonga turgan va o'tirgan holda o'q otib, maksimal ball 200 ballni qo'lga kiritish mumkin.

Mashg'ulot yakunida sport nishoniga otilgan 10 ta o'q va belning past qismi shakldagi nishonga otilgan 20 ta o'qning umumiy ballari qo'shiladi. Politsiya xodimi maksimal 300 ball yig'ishi mumkin bo'lgan ushbu mashg'ulotda 200 ball yig'a olsa, mashg'ulotni muvaffaqiyatli yakunlagan hisoblanadi. Koreya politsiyasida ushbu mashg'ulotda baholanishi "o'tdi yoki "o'ta olmadi" mezonlarini o'z ichiga oladi.

Beldan past qism shaklidagi nishonga e'tibor bersak, nishonda 2,4,5 sonlari mavjud, lekin 3 soni mavjud emas. Koreyaga tashrif chog'ida mazkur savol mutaxassislarga berilganida, 3 sonining mavjud emasligi ahamiyatsizligi va ilmiy yondashish kerak emasligi tavsiya etildi. 3 sonining yo'qligidan asosiy maqsad 2 soni insonning hayotiy muhim organi hisoblanadi va u yerga o'q otilsa, otuvchining ballari tushirilishi kerakligi tushuntirildi. Shuning uchun, jinsiy a'zoga otishdan saqlanish uchun 3 sonining o'rniga 2 soni aks etgan degan xulosaga kelindi. 4 soniga o'q tegsa, jinoyatchining qochish ehtimoli mavjud, 5 soniga o'q tegsa, jinoyatchini qo'lga olish ancha osonlashadi, 2 soniga o'q tegsa shaxsning hayotiy muhim organlariga shikast yetadi. Bularning barchasini hisobga olgan holda, nishon tuzilishi yuqorida tasvirlangan holga keltirilgan.

Ichki ishlar vazirining 2025-yil 10-oktyabrdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasini berish hamda reyting baholash tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 600-sonli buyrug'ining uchinchi ilovasi "Ichki ishlar organlari xodimlarining o'q otish mashg'ulotlarini tashkil etish qoidalari"ning nishon namunalariga yangi namunadagi nishon kiritilishi, ya'ni

Koreya Respublikasi tajribasi asosida birinchi nishon “Belning past qism shakl”li yangi nishon misolida kiritilgan.

Biroq, hozirgi kunda Koreya amaliyotida tinglovchilarga pistolet bilan o‘tkaziladigan bitta mashq uchun 30 ta o‘q taqsimlanishi, bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 6 ta o‘qqa to‘g‘ri kelishi baholash standarti bo‘yicha jiddiy muammoni keltirib chiqarmoqda. Bu esa o‘z navbatida, mazkur yo‘nalishda milliy baholash mezonini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

NATIJA. Koreya tajribasini O‘zbekiston amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘q otish mashqlarining milliy modelini ishlab chiqishga zarurat borligi xususida yuqorida so‘z yuritildi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston amaliyotida beldan past qism nishonga birinchi toifa uchun 1-o‘q otish mashqini quyidagi mezonda tashkil qilish tavsiya etiladi:

- ✓ Nishon turi: Beldan past qismi shakldagi nishon;
- ✓ Nishongacha masofa: 20 metr;
- ✓ Otish holati: tik turgan holda;
- ✓ O‘q-dori soni: 6 ta.

A‘lo – 27-30 ball;

Yaxshi – 20-26 ball;

Qoniqarli – 12-19 ball

Qoniqarsiz – 0-11 ball (shuningdek, 6 ta o‘qdan 3 tasi jinsiy a‘zo qismiga “2” soniga tegsa).

Birinchi toifa uchun 2-o‘q otish mashqini quyidagi baholash mezonlarini tashkil qilish tavsiya etiladi:

o‘q otish mashqini quyidagi baholash mezonlarini tatbiq etilishini tavsiya etamiz:

Nishon turi: Beldan past qismi shakl 1-nishon;

Nishongacha masofa: 5,10,15 metr;

Otish holati: tik turgan holda;

O‘q-dori soni: 6 ta.

A‘lo – 27-30 ball;

Yaxshi – 20-26 ball;

Qoniqarli – 12-19 ball

Qoniqarsiz – 0-11 ball (shuningdek, 6 ta o‘qdan 3 tasi jinsiy a‘zo qismiga “2” soniga tegsa).

Amaliy o‘q otish mashg‘uloti natijalarini baholash:

- a‘lo baho 27-30 ball etib belgilanishida nishonni mo‘ljallashda otilgan 6 dona o‘qdan 3 tasi 5 raqamiga, 3 tasi to‘rt raqamiga tegsa minimal ball 27 ballni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib a‘lo baho olish mezonini 27-30 ball etib;

- yaxshi baho 20-26 ball etib belgilanishida nishonni mo‘ljallashda otilgan 6-dona o‘qdan 4 tasi 4 raqamiga, 2 tasi ikki raqamiga tegsa minimal ball 20 ballni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib yaxshi baho olish mezonini 20-26 ball etib;

- qoniqarli baho 12-19 ball etib belgilanishida nishonni mo‘ljallashda otilgan 6 dona o‘qdan 3 tasi 4 raqamiga tegsa minimal ball 12 ballni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib qoniqarli baho olish mezonini 12-19 ball etib;



- qoniqarsiz baho 0-11 ball etib belgilanishida nishonni mo'ljallashda otilgan 6 dona o'qning jami bali 11 ballgacha bo'lsa, yoki kamida 3 dona o'q 2 raqamiga tegsa qoniqarsiz baho qo'yilishiga asos bo'ladi. Shundan kelib chiqib qoniqarsiz baho olish mezonini 0-11 ball etib belgilash maqsadga muvofiq.

Shuni alohida qayd etish joizki, baholash standartini yaratishda ma'lum mezonlar nazarda tutilgan bo'lib, ular baholash mezonlarining natijaga nisbatan mutanosibligiga o'zining alohida hissasini qo'shadi: Yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni minimallashtirish mezonini – bu tinglovchilarga kelgusida o'qotar qurolni qo'llashda birinchi o'rinda o'lim xavfini keltirib chiqarmaydigan tana qismiga otishni, ya'ni insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqi ekanligini nazarda tutadi

Inson anatomiyasining o'q otish mashg'ulotlaridagi alohida roli (ehtiyotkorlik) mezonini – bu nishonda inson tanasining pastki qismi uch qismga bo'linishi, barchasiga alohida tartibot belgilanishi va mo'ljalga olishda ehtiyotkorlikni nazarda tutadi.

Nishonni mo'ljalga olishda aniqlik mezonini – bu tinglovchilarga o'q otishni o'rgatishda imkon qadar yaxshi natijaga erishishga intilishni nazarda tutadi.

Reallikka yaqinlik mezonini – bu nishonni ishlab chiqishda nishon rangi va shaklining ichki ishlar organlari xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan real sharoitlarga inson tanasiga yaqinligini nazarda tutadi.

Milliy amaliyot xususiyatlarini inobatga olish mezonini – bu Koreya politsiyasi o'q otish tajribasini O'zbekiston ichki ishlar organlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirishni nazarda tutadi.

Kreativlik mezonini – bu baholash standartlarini ishlab chiqishda boshqa davlatlarning baholash indikatorlarini o'z holatida tatbiq etishdan ko'ra, samarali natija beruvchi ijodkorlikni va yaratuvchilikni nazarda tutadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Koreya politsiyasining o'q otish tayyorgarligi puxta o'ylangan metodik tizimga asoslanadi. Ushbu tizimda xavfsizlik, aniqlik va mas'uliyat va inson huquqlarining ta'minlanishi ustuvor o'rin tutadi. Nazariya, amaliyot va psixologik tayyorgarlikning uyg'unligi xodimlarni quroldan ongli va professional tarzda foydalanishga tayyorlaydi. Aynan shu metodik yondashuv Koreya politsiyasining yuqori intizomi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda beldan past qism shaklidagi nishonga o'q otishning milliy modelini ishlab chiqish o'qotar qurolni qo'llashda inson huquqlarini ta'minlash masalasini yanada kuchaytiradi. Ushbu mashq mezonlari ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan shaxsga qarata o'q otishda ularning hayotiy muhim organlarini nishonga olish bilan bog'liq hayot uchun xavfli bo'lgan harakatlarini kamaytirishga va professional harakat qilishga zamin yaratadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori // PQ-10-son.



3. A.T.Alijonov. “O‘qotar qurollar va o‘q otish tayyorgarligi” O‘quv qo‘llanma. –T, – 2022., 174-b.
4. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://president.uz/uz/lists/view/6039> (murojaat qilingan sana 05.03.2026 й.);
5. Зарубежный подход к пониманию профессионально-прикладной физической подготовки полицейского / И.Герасимов ва П.Соловева/ Мақола / Режим кириш: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-podhod-k-ponimaniyu-professionalno-prikladnoy-fizicheskoy-podgotovki-politseyskogo/viewer> (murojaat qilingan sana 05.03.2026 y.);
6. Герасимов И. В. Основные подходы к организации физической подготовки сотрудников органов внутренних дел в современных условиях // Наука-2020. 2019. № 6 (31). С. 118-124.
7. Park I. H. Establishment of physical fitness standards for the integrated selection of male and female candidates for Korean national police university and police executive candidates: Research report // Seoul National University Institute of Sport Science; 2018.
8. Ji Heon Chae, Hyun-Joo Kang. Functional Physical Training Program for Revised Physical Fitness Test of Korean Police Officers // The Asian Journal of Kinesiology 2022. № 24 (1). Pp. 46-53.
9. A.T.Alijonov. Buxoro davlat universiteti Ilmiy-nazariy jurnali 8-son. “Ichki ishlar organlarida o‘q otish tayyorgarligi metodikasini jangovar va jismoniy sifatlar konvergentsiyasi asosida rivojlantirish (Koreya Respublikasi tajribasi misolida)” Ilmiy maqola. avgust 2025-yil.